

MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION EKOTIZIMLARNI SHAKLLANTIRISH KO‘RSATKICHLARINI BAHOLASH

Ramazanov Suhrobjon Sherzod o‘g‘li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

E-mail: suhrobramazanov1998@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada mintaqani barqaror rivojlantirishda innovatsion ekotizimlarni shakllantirish ko‘rsatkichlarini baholash asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, innovatsion ekotizimlarni shakllantirish ko‘rsatkichlarini baholash yuzasidan xulosa va takliflar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: mintaqqa, barqaror rivojlantirish, ekotizim, innovatsion ekotizim, ko‘rsatkich, baholash.

Аннотация

В статье рассматриваются основы оценки показателей формирования инновационных экосистем в устойчивом развитии региона. Представлены выводы и предложения по оценке показателей формирования инновационных экосистем.

Ключевые слова: регион, устойчивое развитие, экосистема, инновационная экосистема, индикатор, оценка.

Abstract

This article discusses the basics of assessing the indicators of the formation of innovative ecosystems in the sustainable development of the region. It also presents conclusions and proposals for assessing the indicators of the formation of innovative ecosystems.

Keywords: region, sustainable development, ecosystem, innovative ecosystem, indicator, assessment.

KIRISH

So‘nggi yillarda mintaqaviy iqtisodiyotda innovatsion rivojlanish omili muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada jahon miqyosida raqobatbardoshlik darajasi innovatsion salohiyat, ilmiy-texnik taraqqiyot, intellektual kapital va ekologik barqarorlik bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion ekotizimlarni shakllantirish mintaqaning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanishining strategik omili hisoblanadi. Bu holatda innovatsion ekotizim universitetlar, ilmiy markazlar, sanoat korxonalar, startaplar, davlat boshqaruvi organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni ifodalaydi. Mintaqada mazkur ekotizimni shakllantirish orqali innovatsion g‘oyalarni iqtisodiy o‘rish manbaiga aylantirish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashga erishiladi. Shu bois, innovatsion ekotizimlarning samaradorligini turli ko‘rsatkichlar asosida baholash muhim ilmiy-amaliy vazifa bo‘lib qaraladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqani barqaror rivojlantirishda innovatsion ekotizimlarni shakllantirish ko'rsatkichlarini baholash yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, ayrim tadqiqotlarga asosan, barqaror rivojlanishga erishish darajasini aniqlash uchun korrelyatsiya modeli ishlab chiqilganligi e'tirof etiladi [1]. Shunday ekan, mintaqani barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi tendensiyalarini o'rganishga zamonaviy yondashuvlar asosida shaharlar va tumanlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash hamda ularni bartaraf qilishga qaratilgan ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim. Bu boradagi tadqiqotlar mintaqani shahar va tumanlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilishni taqozo etadi [2].

Yana bir tadqiqotlarga asosan, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish korxonalar uchun ijobiy qadam bo'lib qaraladi. Ya'ni, innovatsion texnologiyalarni samarali axborotlashtirish makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini darajada oshiradi. Bu esa boshqaruv qarorlari sifati va darajasini, axborot jarayonlari va xizmatlari samaradorligini oshirishga olib keladi. Ushbu qarorlar ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy, texnik, madaniy va hayotning boshqa ko'rsatkichlarini yaxshilaydi [3].

Yana bir boshqa tadqiqotlar innovatsion ekotizimlarni shakllantirish ko'rsatkichlarini baholashda ekspertiza usulini qo'llashni taqozo qiladi. Xususan, baholash ekspertiza shaklida ma'lum mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi [4]. Shu munosabat bilan barqaror mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror o'sishiga imkon beradigan yangi omillarni aniqlash bilan bog'liq tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi biznes ekotizimlari va ularning manfaatdor tomonlari jarayonlariga asoslanib, muvozanatli ko'rsatkichlar algoritmi orqali mintaqalar moliyaviy barqarorligini oshirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlashga qaratiladi [5].

Boshqa tadqiqotlarga asosan, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o'rganishda ekotizimlar konsepsiyasi, tamoyillari va asoslari munozarali masala bo'lib hisoblanadi. Ushbu ekotizim samaradorligining asosiy omillarini aniqlash hamda ularning rivojlanish darajasini va ular paydo bo'ladigan va faoliyat yuritadigan muhitga ta'sirini baholashda metodologik muammolar tug'diradi [6]. Boshqa tadqiqotlarning yo'nalishi esa innovatsion ekotizimlarni shakllantirish ko'rsatkichlarini baholashning yo'nalishi hududiy barqarorlikni ta'minlashga qaratiladi. Ya'ni, bu boradagi tadqiqotlar hududiy barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan yashil investitsiyalar natijalarini iqtisodiy baholashning nazariy va tahliliy asoslarini taklif qiladi [7]. Ba'zi bir manbalarda mintaqani barqaror rivojlantirishda innovatsion ekotizimlarni shakllantirish ko'rsatkichlarini turli formulalar orqali baholash tadqiq qilindi. Unga ko'ra, manbalarda innovatsion ekotizimlar rivojlanishining eng muhim ta'sirini qiymat jihatidan hisoblash formulalari taklif qilinadi [8].

Shuningdek, innovatsion ekotizimlar nazariyasi ekotizim o'zaro manfaatli hamkorlik muhitini ta'minlashga qaratiladi. Mintaqaviy miqyosda esa innovatsion ekotizimlar ilmiy-ta'lim muassasalari, biznes sektori, davlat sektori, infratuzilma hamda ekologik va ijtimoiy omillar kabi asosiy komponentlardan tashkil topadi. Ushbu

tizimning muvaffaqiyati esa ularning o‘zaro integratsiya darajasi, hamkorlik mexanizmlari va innovatsion muhitning ochiqligi bilan belgilanadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan turli usullardan foydalanildi. Xususan, ushbu tadqiqotda mintaqani barqaror rivojlantirishda innovatsion ekotizimlarni shakllantirish ko‘rsatkichlarini baholashda kuzatish, mantiqiy fikrlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, ma‘lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion ekotizimlarni shakllantirish jarayoni murakkab va ko‘p bosqichli bo‘lgani sababli uni baholash uchun kompleks ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish talab etiladi. Ushbu ko‘rsatkichlar orqali mintaqaning innovatsion salohiyati, ekologik barqarorligi va iqtisodiy faolligi o‘lchanadi. Shularga muvofiq, mintaqani barqaror rivojlantirishda innovatsion ekotizimlarni shakllantirish ko‘rsatkichlari mintaqaning innovatsion salohiyati, iqtisodiy faolligi, ekologik barqarorligi va ijtimoiy rivojlanish darajasini o‘lchaydigan miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlar tizimidan tarkib topadi. Ushbu ko‘rsatkichlar quyidagi asosiy to‘rt yo‘nalishlarga ajratiladi:

- innovatsion infratuzilma va salohiyat ko‘rsatkichlari. Bu ko‘rsatkichlar tarkibiga mintaqada ilmiy va texnologik salohiyatni baholash uchun xizmat qiladi. Ular tarkibiga ilmiy-tadqiqot muassasalari soni va ularning faoliyati darajasi, innovatsion markazlar, texnoparklar, klasterlar va biznes-inkubatorlar soni, universitetlarda ilmiy tadqiqotlar hajmi, patentlar va litsenziyalar soni, innovatsion loyihalarda band bo‘lgan tadqiqotchilar va mutaxassislar ulushi hamda innovatsion faol korxonalar ulushi (umumiy korxonalar soniga nisbatan) va R&D (tadqiqot va ishlanmalar) xarajatlarining YaIMdagi ulushi kabilarga kiradi.

- iqtisodiy samaradorlik va innovatsion faoliyat ko‘rsatkichlari. Bu ko‘rsatkichlar innovatsion ekotizimning iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasini aks ettiradi. Ushbu ko‘rsatkichlar innovatsion mahsulot va xizmatlar ulushi (umumiy ishlab chiqarish hajmiga nisbatan), innovatsion faoliyatga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi, startaplar soni va ularning o‘sinh sur‘ati, innovatsion eksport hajmi va ulushi, innovatsion texnologiyalar asosida yaratilgan yangi ish o‘rinlari soni, raqamli iqtisodiyot ulushi va AKT infratuzilmasi rivojlanish darajasi hamda mahalliy innovatsion ishlab chiqarishning raqobatbardoshligi kabilarga ajratiladi.

- ekologik barqarorlik ko‘rsatkichlari. Barqaror rivojlanishning ajralmas qismi sifatida ekologik jihatlar muhim ahamiyatga ega. Ularga “yashil” texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish darajasi, chiqindilarni qayta ishlash ulushi, atmosfera chiqindilari (SO₂, CO₂ va boshqalar) miqdorining kamayish tendensiyasi, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish darajasi, sanoatda ekologik menejment tizimlarining mavjudligi (ISO 14001 va boshqalar) hamda ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi kabi ko‘rsatkichlar kiradi.

- ijtimoiy va boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlari. Bu ko'rsatkichlar mintaqaning ijtimoiy rivojlanishi, inson kapitali va boshqaruv tizimining innovatsion salohiyatini baholaydi. Ularga innovatsion sohada band aholining ulushi, ta'lim sifati va oliy ma'lumotli kadrlar ulushi, aholining raqamli savodxonlik darajasi, davlat boshqaruvida raqamli xizmatlar ulushi, ilm, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya darajasi, innovatsion siyosatni qo'llab-quvvatlovchi mahalliy dasturlar mavjudligi hamda ijtimoiy innovatsiyalar ("aqli shaharlar" va ekologik startaplar) soni kiradi.

- umumiy integrallashgan baholash indeksi uchun qo'shimcha ko'rsatkichlar. Ular tarkibi mintaqaning innovatsion raqobatbardoshlik indeksi, inson rivojlanish indeksi bilan innovatsion faoliyat o'rtasidagi bog'liqlik, innovatsion ekotizimni qo'llab-quvvatlashga ajratilgan davlat xarajatlari hamda mahalliy hamkorlik tarmog'i (universitet-biznes-davlat uchligi) samaradorligi kabi ko'rsatkichlardan iborat bo'ladi.

Yuqorida nomi qayd etilgan ko'rsatkichlar kompleks baholash tizimida birlashtirilib, har bir mintaqaga uchun "innovatsion ekotizim rivojlanish indeksi" bo'lib hisoblanadi. Ushbu indeks yordamida mintaqalararo taqqoslash amalga oshiriladi, kuchli va zaif tomonlar aniqlanadi, barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha strategiyalar ishlab chiqiladi. Ushbu ko'rsatkichlarni baholash tizimi quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi:

a) Innovatsion infratuzilma ko'rsatkichlari:

- ilmiy-tadqiqot tashkilotlari soni;
- texnopark va biznes-inkubatorlar faoliyati;
- ilmiy ishlar hajmi va ularning tijoratlashtirish darajasi.

b) Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari:

- yangi texnologiyalar asosida yaratilgan mahsulot ulushi;
- startaplar soni va ularning o'sish dinamikasi;
- innovatsion investitsiyalar hajmi;
- YaIMda innovatsion sektorning ulushi.

c) Ekologik va ijtimoiy barqarorlik ko'rsatkichlari:

- yashil texnologiyalarni joriy etish darajasi;
- chiqindilarni qayta ishlash ulushi;
- ekologik samarador ishlab chiqarish ko'rsatkichlari;
- ijtimoiy innovatsiyalar va bandlik darajasi.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida mintaqaviy innovatsion ekotizimning holatini kompleks tarzda tahlil qilish mumkin bo'ladi.

Shuningdek, mintaqani barqaror rivojlantirishda innovatsion ekotizimlarni shakllantirish ko'rsatkichlari formulalari mintaqaning innovatsion, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy rivojlanish darajasini miqdoriy jihatdan baholash uchun qo'llaniladigan ifodalar bo'lib hisoblanadi. Bu borada quyidagi asosiy indikatorlar va ularni hisoblash formulalari qo'llaniladi:

1) Innovatsion salohiyat ko'rsatkichlari: Bu ko'rsatkich YaIMga nisbatan tadqiqot va ishlanmalarga sarflangan mablag'lar ulushini ifodalaydi. Rivojlangan mintaqalarda ushbu ko'rsatkich odatda 2-3 % dan yuqori bo'ladi.

1.1. Ilmiy-tadqiqot faoliyati intensivligi

$$IR\&D = \frac{R\&D \text{ xarajatlari}}{YaIM} * 100 \% \quad (1)$$

1.2. Patent faolligi ko‘rsatkichi. Bu 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan patentlar sonini ifodalaydi.

$$Ipat = \frac{P}{N} * 1000 \quad (2)$$

bu yerda,

P — yil davomida berilgan patentlar soni,

N — mintaqa aholisi soni (ming kishi hisobida).

1.3. Innovatsion korxonalar ulushi. Bu innovatsiyalarni joriy etayotgan firmalar ulushini belgilaydi.

$$Ifirm = \frac{Kinn}{Kum} * 100 \% \quad (3)$$

bu yerda,

$Kinn$ — innovatsion faol korxonalar soni,

Kum — mintaqadagi umumiy korxonalar soni.

2) Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari:

2.1. Innovatsion mahsulot ulushi

$$Iprod = \frac{Minn}{Mum} * 100 \% \quad (4)$$

bu yerda,

$Minn$ — innovatsion mahsulot hajmi,

Mum — jami ishlab chiqarish hajmi.

2.2. Innovatsion investitsiyalar ulushi

$$Iinv = \frac{Iinn}{Ium} * 100 \% \quad (5)$$

bu yerda,

$Iinn$ — innovatsion loyihalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar,

Ium — mintaqadagi jami investitsiyalar hajmi.

2.3. Startaplar faollik indeksi

$$Istart = \frac{Sfaol}{Sum} * 100 \% \quad (6)$$

bu yerda,

$Sfaol$ — faoliyat yuritayotgan startaplar soni,

Sum — ro‘yxatdan o‘tgan jami startaplar soni.

3) Ekologik barqarorlik ko‘rsatkichlari

3.1. Yashil texnologiyalar ulushi:

$$Igreen = \frac{Teco}{Tum} * 100 \% \quad (7)$$

bu yerda,

$Teco$ — ekologik toza (yashil) texnologiyalar asosidagi ishlab chiqarish hajmi,

Tum - umumiy ishlab chiqarish hajmi.

3.2. Chiqindilarni qayta ishlash ulushi

$$Iwaste = \frac{Qrecycle}{Qtotal} * 100 \% \quad (8)$$

bu yerda,

$Q_{recycle}$ — qayta ishlangan chiqindilar miqdori,

Q_{total} — jami chiqindilar hajmi.

3.3. Energiya tejamkorlik koeffitsiyenti

$$K_{energy} = \frac{E_{old} - E_{new}}{E_{old}} * 100 \% \quad (9)$$

bu yerda,

E_{old} — ilgari sarflangan energiya miqdori,

E_{new} — innovatsion texnologiyadan keyingi energiya sarfi.

4) Ijtimoiy va boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlari:

4.1. Innovatsion sohada band aholining ulushi

$$I_{emp} = \frac{N_{inn}}{N_{um}} * 100 \% \quad (10)$$

bu yerda,

N_{inn} — innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi xodimlar soni,

N_{um} — mintaqadagi umumiy band aholining soni.

4.2. Ta'lim sifati indeksi

$$I_{edu} = \frac{U_{yuq}}{U_{um}} * 100 \% \quad (11)$$

bu yerda,

U_{yuq} — oliy ma'lumotli aholining soni,

U_{um} — mintaqaning umumiy aholisi.

4.3. Raqamli boshqaruv darajasi

$$I_{digit} = \frac{X_{onlayn}}{X_{um}} * 100 \% \quad (12)$$

bu yerda,

X_{onlayn} — raqamli (onlayn) tarzda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari soni,

X_{um} — jami davlat xizmatlari soni.

5) Integrallashgan innovatsion ekotizim indeksi: Yuqoridagi ko'rsatkichlar normalizatsiya qilinib (0 dan 1 gacha oraliqqa keltirilib), ularning og'irlik koeffitsiyentlari (w_i) hisobga olinadi. Bu integral baholash usuli sifatida ko'p sonli ko'rsatkichlarni (ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy va ekologik) bitta umumiy indikatorga birlashtirish orqali mintaqaning innovatsion ekotizimi holatini aniqlashga qaratiladi:

$$IIE = \sum_{i=1}^n w_i * x_i \quad (13)$$

bu yerda,

IIE — mintaqaning innovatsion ekotizim indeksi,

x_i - i-chi normalizatsiya qilingan ko'rsatkich,

w_i — ushbu ko'rsatkichning ahamiyat og'irligi ($\sum w_i = 1$).

Natijada, $IIE > 0.7$ — yuqori darajada rivojlangan innovatsion ekotizim, $0.4 \leq IIE \leq 0.7$ — o'rta daraja rivojlangan innovatsion ekotizim va $IIE < 0.4$ — past darajada rivojlangan innovatsion ekotizim bo'lib hisoblanadi. Ushbu formulalar yordamida iqtisodiy samaradorlik, ilmiy-texnik salohiyat, ekologik barqarorlik va ijtimoiy rivojlanish jihatlarida mintaqaning innovatsion ekotizimini kompleks tarzda baholash mumkin bo'ladi. Biroq, integral indeks natijalariga qarab, mintaqaning innovatsion ekotizimini turli darajalarga ajratish mumkin. Bu borada tadqiqotimizda

mintaqani barqaror rivojlantirishda innovatsion ekotizimlarni shakllantirish ko‘rsatkichlarini (0,8-1), “o‘rta” (0,5-0,7) va “quyi” (0,1-0,4) darajalarda integral baholash usuli taklif etiladi (1-jadval):

1-jadval

Mintaqaning innovatsion ekotizimini baholash darajalari¹

Baholash darajasi	Integral indeks qiymati (I IE)	Tavsifi
yuqori (barqaror)	0,8-1,0	Innovatsion infratuzilma yaxshi rivojlanadi, ilmiy, texnologik va ekologik muvozanat mavjud bo‘ladi, startaplar faol bo‘ladi, “yashil” texnologiyalar keng qo‘llaniladi hamda davlat, biznes va ta’lim tizimi integratsiyalashadi
o‘rta (rivojlanayotgan)	0,5-0,7	Innovatsion jarayonlar barqarorlik bosqichida amalga oshiriladi, infratuzilma shakllanayotgan bo‘ladi, ilmiy ishlanmalar mavjud bo‘ladi, tijoratlashtirish sust bo‘ladi ekologik ko‘rsatkichlar o‘rtacha darajada bo‘ladi
quyi (boshlang‘ich)	0,1-0,4	Innovatsion muhit zaif bo‘ladi, ilmiy tadqiqotlar va startaplar soni kam bo‘ladi, ekologik muvozanat past bo‘ladi, investitsiyalar yetarli bo‘lmaydi va ekotizim elementlari o‘zaro integratsiyalanmaydi

Ushbu 1-jadvalga asosan, mintaqani barqaror rivojlantirishda innovatsion ekotizimlarni shakllantirish ko‘rsatkichlarini bo‘yicha farqlashtirish va shu orqali hududlarni turli rivojlantirish toifalariga ajratish imkonini beradi. Bu holatlarda quyi darajadagi mintaqalar uchun innovatsion markazlar va texnoparklarni tashkil etish va startaplarni moliyaviy rag‘batlantirish, o‘rta darajadagi mintaqalar uchun ilm, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish hamda yuqori darajadagi mintaqalar uchun xalqaro innovatsion hamkorlikni kengaytirish va yashil texnologiyalarni eksport qilish salohiyatini oshirish kabi yo‘nalishlar hisobga olindi.

Fikrimizcha, integral baholash natijalari shuni ko‘rsatadiki, mintaqani barqaror rivojlantirishda innovatsion ekotizimlar shakllanishini ko‘rsatkichlar tizimi asosida muntazam monitoring qilish zarur. Ushbu yondashuv mintaqaviy siyosatni raqamli va ilmiy asoslangan tarzda shakllantirishga imkon beradi. Shunga qaramay, mintaqalar o‘rtasida innovatsion rivojlanish darajasida farqlar mavjud. Ayrim viloyatlarda ilmiy salohiyat, investitsion jozibadorlik va kadrlar tayyorlash darajasi past bo‘lib, bu ekotizimlarning to‘laqonli ishlashiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli, baholash natijalari asosida har bir mintaqaga uchun differensial rivojlanish strategiyasi ishlab chiqish lozim.

Yuqorida keltirilgan formulalarni baholash jarayonida indikatorlar tizimini shakllantirish, ma’lumotlarni yig‘ish, normalizatsiya qilish va integral indeksni hisoblash bosqichlari qo‘llaniladi. Bu holatda ekspert baholash, statistik tahlil hamda indeks usuli kabi metodologiyalar keng qo‘llaniladi. Natijada, mintaqaning innovatsion ekotizim rivojlanish darajasi yuqori, o‘rta yoki past bosqichda ekanligi aniqlanadi. Bu esa hududiy siyosatni takomillashtirish uchun muhim axborot manbai

¹ Muallif ishlanmasi

bo'lib xizmat qiladi. Ushbu baholash tizimi mintaqaviy siyosatda innovatsion ustuvorliklarni aniqlash, resurslarni samarali taqsimlash va investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, ekologik barqaror texnologiyalarni joriy etish jarayonini monitoring qilish hamda hududlararo raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni tezlashtirish kabi amaliy natijalarga erishish imkonini beradi. Bundan tashqari, baholash natijalari asosida davlat organlari, ilmiy muassasalar va xususiy sektor o'rtasida hamkorlik mexanizmlari yanada kuchayadi. Shunday ekan, mintaqani barqaror rivojlantirishda innovatsion ekotizimlarni shakllantirish strategik ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion ekotizim mintaqaviy iqtisodiy, ilmiy va ekologik resurslarni integratsiyalaydi. Ekotizimni samarali boshqarish uchun esa kompleks baholash ko'rsatkichlari tizimi ishlab chiqish zarur bo'ladi. Baholash jarayonida ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy va ekologik omillar uyg'un hisobga olinishi lozim. O'zbekiston sharoitida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish bilan bir qatorda hududlararo tenglikni ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion ekotizimlarning samarali ishlashi natijasida mintaqalarda yuqori qo'shimcha qiymat yaratiladi, ekologik yuk kamayadi va aholining farovonlik darajasi oshadi. Shunday qilib, innovatsion ekotizimlarni shakllantirish va ularni samarali baholash mexanizmlarini joriy etish mintaqani barqaror va raqobatbardosh rivojlantirishning asosiy garovi bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ilysheva N., Karanina E., Baldesku E. Analysis of the factors of sustainable development of ecosystems in the territories of the North. // E3S Web of Conferences 208, 08020 (2020), IFT 2020. - p. 7.
2. Rajabov A.X. Mintaqani barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini klasterli yondashuvlar asosida tahlili. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy-elektron jurnali, 2/2024, mart-aprel (№00070). - 139 b.
3. Urozova Sh.H. Innovatsion va raqamli texnologiyalarni iqtisodiy o'sishga ta'siri. // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024-yil, iyun, — 240 b.
4. Umarov B.S., Najimadinov R. Innovatsion iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. — T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022. — 89 b.
5. Simonyan, T., Tsvetova, S., Kolgan, M., Medvedeva, Y., Oleynikova, Y. (2023). Business Ecosystems as a Factor of Sustainable Development of Regions in Conditions of Macroeconomic Instability. In: Zokirjon ugli, K.S., Muratov, A., Ignateva, S. (eds) Fundamental and Applied Scientific Research in the Development of Agriculture in the Far East (AFE-2022). AFE 2023. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 706. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-36960-5_103
6. Попов Е.В., Симонова В.Л., Челак И.П. Оценка развития инновационных экосистем. // Вопросы инновационной экономики, 2020, Том10, №4. — с. 2361. doi: 10.18334/vines.10.4.111098

7. Kurdyukov V., Ovcharenko A. Assessing the economic efficiency of green investments in the context of sustainable development of the territory. // Green Finance, 2023, Volume5, Issue3. — pp. 343-372. doi: 10.3934/GF.2023014
8. https://upravlenie.guu.ru/jour/article/view/248?locale=en_US



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, noyabr, 11-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**